

birga, onlayn chat-botlar va raqamli maslahatchilarni ishga tushirish orqali aholiga tezkor va ishonchli moliyaviy ma'lumot yetkazish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi aholining moliyaviy bilimini oshirishga, byudjet-soliq tizimining samaradorligini yuksaltirishga va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholining davlat moliyaviy boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshirish ham muhim jihatlardan biri sanaladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5-44.
2. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money.
3. Stiglitz, J. E. (2012). The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future.
4. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65-94.
5. Barro, R. J. (1990). Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth. *Journal of Political Economy*, 98(5), S103-S125.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi "Aholining moliyaviy bilimini oshirish va bank xizmatlaridan foydalanish darajasini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

AHOLINI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BUDJET-SOLIQ SIYOSATIGA STRATEGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

*Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna
TDIU, Budget hisobi va g'aznachilik kafedrasi dotsenti, PhD
Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi
Byudjet nazorat va g'aznachilik yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: ushbu tezisda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va budjet-soliq tizimini oqilona boshqarish muhimliligi tadqiq etilgan. Moliyaviy savodxonlik aholi turmush tarzining o'sishida va soliq siyosatining shaffofligini oshirish davlat byudjetining oqilona taqsimlanishida qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu masalalar yuzasidan ilg'or tajribalar va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, budjet-soliq tizimi, soliq siyosati, iqtisodiy barqarorlik, davlat xarajatlari.

Mamlakat iqtisodiy barqarorligi va aholining farovonligini ta'minlash maqsadida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish va budjet-soliq tizimini oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali davlat xarajatlarini

to'g'ri moliyalashtirish, davlat daromadini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolarning ijtimoiy himoya qilish, infratuzilmani rivojlantirishiga erishish mumkin. Moliyaviy savodxonlikning oshirilishi esa aholining moliyaviy mustaqilligini ta'minlab, ularning daromad va jamg'armalarini samarali boshqarishiga yordam beradi. Moliyaviy savodxonlik fuqarolarning shaxsiy byudjetlarini samarali boshqarishiga, shu jumladan, oilaviy budjetni samarali boshqarish, bank va moliya institutlari bilan oqilonha hamkorlik qilish, kredit va investitsiya bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish, qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020 yildagi 506-sonli "2020 - 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori[1] qabul qilindi va muhim strategiyalar ishlab chiqildi. Strategiya davlat moliyasi to'g'risida jamoatchilikka keng qamrovli ma'lumotlar berish va shaffoflikni ta'minlash, samaradorlik va natijadorlikka bosqichma-bosqich erishishga qaratilgan 6 ta asosiy yo'nalishga bo'lingan strategiyalar ishlab chiqildi. Ular:



1-rasm. Fiskal siyosatga o'tishning strategik yondashuvlar ketma-ketligi.

Manba: lex.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi islohotlarning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi

O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. [2] Ushbu farmonda: "Davlat budgeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash" kabi muhim masalalar qamrab olindi.

Demak bir qancha qancha ustuvor yo'nalişlar budget-soliq tizimini yanada samarali boshqarishda o'zining katta hissasini qo'shishi mumkin.. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish – soliq yig'imlarining shaffofligini oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirishga, soliq yukini optimallashtirish – kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish hamda soliqlarning iqtisodiy faollikka salbiy ta'sirini kamaytirishga hamda davlat xarajatlarini samarali taqsimlash – budget mablag'larini oqilona rejalahtirish orqali aholining dolzarb ehtiyojlarini qondirishga katta yordam beradi.

Davlat tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun ta'lim dasturlari, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot va maxsus treninglar tashkil etilishi zarur. Shu bilan birga, maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Moliyaviy savodxonlik va budget-soliq tizimini oqilona boshqarish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy bilimlarni oshirish aholining farovonligini yuksaltirsa, samarali soliq tizimi davlat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish nafaqat fuqarolar daromadini oshirishga, balki umuman mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi Bu esa nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020 yildagi 506-sonli "2020 - 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4966572>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

EXPANDING WOMEN'S PARTICIPATION IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP THROUGH FINANCIAL LITERACY

Ulashova Zarnigor Botirali Qizi
*Assistant of the Department of Economic Theory,
Tashkent State University of Economics*

Annotation. This article investigates the impact of financial literacy programs on women's participation in business and entrepreneurial activities, employing an IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion) structure. In the Introduction, it highlights the global underrepresentation of women in